

PAPER

## NOFILOLOGIK TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIGA INGLIZ TILIDA SOHAVIY LEKSIKANI O'RGATISH METODIKASI

Umuxanov Nodirjon Bobirovich <sup>1,\*</sup>

<sup>1</sup>University of business and science universiteti o'qituvchisi

\* umuxanov@gmail.com

### Abstract

Mazkur maqolada nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga ingliz tilida sohaviy leksikani o'rgatishning nazariy va metodik asoslari tahlil qilinadi. Tadqiqotda sohaviy leksikaning lingvistik xususiyatlari, uning kasbiy kompetensiyani shakllantirishdagi o'rni hamda oliy ta'lim muassasalarida qo'llaniladigan samarali metodik yondashuvlar yoritiladi. Shuningdek, kommunikativ, kompetensiyaga asoslangan va integrativ yondashuvlar asosida ishlab chiqilgan mashqlar tizimi tavsiya etiladi. Tadqiqot natijalari nofilologik yo'nalish talabalarining kasbiy nutq kompetensiyasini rivojlantirishda sohaviy leksikani tizimli o'qitish muhim metodik ahamiyatga ega ekanini ko'rsatadi.

**Key words:** sohaviy leksika, nofilologik ta'lim, kasbiy kompetensiya, ESP, kommunikativ yondashuv, integrativ metodika.

### Kirish

Globalashuv jarayonlari, xalqaro iqtisodiy integratsiya va ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvi natijasida turli soha mutaxassislarining xorijiy tillarda, xususan ingliz tilida professional muloqot qila olish ehtiyoji tobora ortib bormoqda. Bugungi kunda ingliz tili nafaqat xalqaro aloqa vositasi, balki ilm-fan, texnologiya, iqtisodiyot va biznes sohalarida yetakchi kommunikativ platforma sifatida e'tirof etilmoqda. Shu bois oliy

ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitish mazmuni ham tubdan o'zgarib, u an'anaviy umumtil kompetensiyasini shakllantirish doirasidan chiqib, kasbiy yo'naltirilgan kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilmoqda.

Ayniqsa, nofilologik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun ingliz tilini o'rganishning asosiy maqsadi kundalik muloqotni ta'minlash emas, balki o'z mutaxassisligi doirasida ilmiy manbalar bilan ishlash, kasbiy hujjatlarni tushunish va tuzish, xalqaro tajriba almashinuvida

Compiled on: March 17, 2026.

Copyright: ©2026 by the authors. Submitted to *Advances in Science and Education* for possible open access publication under the terms and conditions of the [Creative Commons Attribution \(CC BY\) 4.0 license](https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/).

faol ishtirok etish imkoniyatini yaratishdan iboratdir. Demak, ingliz tilini o'qitish jarayonida kasbiy ehtiyojlar, sohaviy kommunikatsiya va terminologik aniqlik ustuvor ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, sohaviy leksikani o'qitish masalasi chet tilini o'qitish metodikasining dolzarb yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi.

Sohaviy leksika muayyan kasb yoki ilmiy yo'nalishga xos terminlar, atamalar, kollokatsiyalar va professional nutq birliklarini o'z ichiga oladi. U nafaqat alohida so'z va terminlarni bilishni, balki ularni kasbiy kontekstda to'g'ri va maqsadga muvofiq qo'llay olishni ham nazarda tutadi. Sohaviy leksikaning o'ziga xos xususiyati shundaki, u yuqori darajadagi semantik aniqlik, terminologik barqarorlik va kontekstga bog'liqlik bilan tavsiflanadi. Shu sababli, uni o'qitish jarayoni oddiy leksik birliklarni yodlash bilan cheklanmasligi, balki mazkur birliklarning funksional xususiyatlarini, ularning kasbiy diskursdagi o'rnini va kommunikativ vazifasini ochib berishni talab etadi [2].

Zamonaviy lingvodidaktik qarashlarga ko'ra, kasbiy yo'naltirilgan til o'qitish (ESP – English for Specific Purposes) talabalarning ehtiyojlari va kelgusidagi kasbiy faoliyatini inobatga olgan holda tashkil etilishi lozim. Bu yondashuv sohaviy leksikani tanlash, tizimlashtirish va o'qitish metodikasini ishlab chiqishda ehtiyoj tahlili, autentik materiallardan foydalanish va kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish kabi tamoyillarga tayangan holda amalga oshiriladi. Shunday ekan, nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga ingliz tilida sohaviy leksikani o'rgatish maxsus metodik yondashuvni, integrativ va kompetensiyaga asoslangan ta'lim modelini qo'llashni taqozo etadi.

Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab oliy ta'lim muassasalarida sohaviy leksikani o'qitish yetarlicha tizimlashtirilmagan, ko'pincha terminlarni tarjima qilish yoki izohlash bilan cheklanadi. Bunday yondashuv esa talabalar leksik kompetensiyasining faol va funksional shakllanishini ta'minlay olmaydi. Shu bois, sohaviy leksikani o'qitish jarayonini bosqichma-bosqich, kommunikativ vazifalar bilan bog'liq holda va kasbiy kontekstda tashkil etish zarurati yuzaga keladi.

## Adabiyotlar tahlili va metodologiya

Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga ingliz tilida sohaviy leksikani o'rgatish masalasi chet tilini o'qitish metodikasining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, u ESP (English for Specific Purposes) konsepsiyasi bilan bevosita bog'liq holda rivojlanib kelgan. ESP nazariyasining shakllanishi XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Hutchinson va Waters (1987) ESPni "o'qitish mazmuni talabalarning aniq ehtiyojlariga asoslanadigan yondashuv" sifatida talqin qiladi. Ularning fikricha, til o'qitish jarayonida asosiy e'tibor o'quvchi ehtiyojlari, kasbiy maqsadlari va kommunikativ vazifalariga qaratilishi lozim. Bu yondashuv sohaviy leksikani tanlash va tizimlashtirishda ehtiyoj tahlilini asosiy metodik mezon sifatida belgilaydi [3].

Dudley-Evans va St. John (1998) ESPning rivojlanish bosqichlarini tahlil qilib, kasbiy yo'naltirilgan til o'qitishda autentik materiallardan foydalanish, terminologik aniqlik va kommunikativ vaziyatlarni modellashtirish muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Ularning qarashlarida sohaviy leksika nafaqat terminlar yig'indisi, balki kasbiy diskursni shakllantiruvchi vosita sifatida qaraladi [5].

Leksik kompetensiya masalasi Nation (2001) tomonidan chuqur o'rganilgan bo'lib, u so'z bilimining uch asosiy komponentini — shakl, ma'no va qo'llanishni ajratadi. Nacionga ko'ra, samarali leksik o'qitish jarayoni ushbu uchlikning uyg'un holda shakllanishini ta'minlashi lozim. Bu qarash sohaviy leksikani o'qitishda kontekstual va funksional yondashuvning zarurligini ilmiy asoslaydi [6].

Richards va Rodgers (2014) kommunikativ yondashuvni til o'qitish metodikasining zamonaviy paradigmasi sifatida ko'rsatadi. Ularning fikricha, til birliklari real kommunikativ vazifalar orqali o'zlashtirilgandagina barqaror kompetensiyaga aylanadi. Mazkur tamoyil sohaviy leksikani kasbiy vaziyatlar asosida o'qitish metodikasini ishlab chiqishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [4].

Mahalliy olimlar orasida J. Jalolov chet tillarni o'qitishda leksik birliklarning tizimli o'zlashtirilishi va ularni nutqiy faoliyat bilan integratsiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratadi. U leksik materialni o'qitishda kontekstga tayangan holda, mashqlar tizimini bosqichma-

bosqich tashkil etish zarurligini ta'kidlaydi. Jalolovning qarashlari sohaviy leksikani o'qitishda kommunikativ va kompetensiyaga asoslangan yondashuvni qo'llashning metodik asosini yaratadi [1].

Shuningdek, o'zbek olimlari tomonidan kasbiy yo'naltirilgan ingliz tilini o'qitish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda (masalan, ESPga bag'ishlangan ilmiy ishlar) terminologik leksikani o'qitish jarayonida autentik matnlardan foydalanish, loyiha usuli va interaktiv mashqlar samarali natija berishi qayd etilgan. Bu tadqiqotlar sohaviy leksikani o'qitish jarayonini real kasbiy diskurs bilan integratsiyalash zarurligini tasdiqlaydi [2].

Tahlil shuni ko'rsatadiki, xorijiy va mahalliy adabiyotlarda sohaviy leksikani o'qitishning nazariy asoslari yetarlicha ishlab chiqilgan bo'lsa-da, nofilologik yo'nalish talabalariga mo'ljallangan aniq metodik model va bosqichli mashqlar tizimi yetarlicha tizimlashtirilmagan. Ayniqsa, leksik kompetensiyani shakllantirishda differensial yondashuv va baholash mezonlarini aniqlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

Shu bois mazkur tadqiqot mavjud nazariy qarashlarni umumlashtirgan holda, sohaviy leksikani o'qitishning integrativ va bosqichli metodik modelini ishlab chiqishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqot nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga ingliz tilida sohaviy leksikani o'rgatishning nazariy va amaliy asoslarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, kompleks metodologik yondashuv asosida amalga oshirildi. Tadqiqot jarayonida bir-birini to'ldiruvchi ilmiy metodlar qo'llanildi hamda ular zamonaviy lingvodidaktik qarashlar bilan uyg'un holda tanlandi.

Avvalo, nazariy tahlil metodi asosida ESP (English for Specific Purposes) konsepsiyasi, kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli va leksik kompetensiya nazariyasiga oid ilmiy manbalar o'rganildi. ESP yondashuvi ilk bor Hutchinson va Waters tomonidan tizimlashtirilib, til o'qitish jarayonini talabani kasbiy ehtiyojlariga moslashtirish zarurligi asoslab berilgan. Ularning fikricha, o'qitish mazmuni ehtiyoj tahliliga asoslanishi lozim. Dudley-Evans va St. John esa ESPning asosiy tamoyillarini kengaytirib, autentik materiallardan foydalanish va kommunikativ vazifalarni modellashtirishni muhim metodik omil

sifatida ta'kidlaydi. Nation leksik kompetensiyani shakllantirish jarayonida so'zning shakli, ma'nosi va qo'llanishi birligiga alohida e'tibor qaratadi, bu esa sohaviy leksikani o'qitishda semantik va funksional tahlilning zarurligini ko'rsatadi [2]. Mahalliy olimlardan J.Jalolov chet tillarni o'qitishda leksik birliklarni tizimli va bosqichma-bosqich o'zlashtirish tamoyillarini asoslab bergan. U leksik materialni o'qitishda kontekst, kommunikativ vazifa va mashq tizimining izchilligini muhim omil sifatida qayd etadi. Shuningdek, kasbiy yo'naltirilgan o'qitish jarayonida terminologik aniqlik va funksional qo'llanish ustuvor bo'lishi lozimligini ta'kidlaydi [1].

Qiyosiy tahlil metodi yordamida umumiy ingliz tili (General English) va kasbiy yo'naltirilgan ingliz tili (ESP) yondashuvlari o'zaro solishtirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, General English kommunikativ umumiylikni rivojlantirishga qaratilgan bo'lsa, ESP aniq kasbiy kontekstga asoslanadi. Richards va Rodgers tomonidan ilgari surilgan kommunikativ yondashuv tamoyillari til birliklarini real kommunikativ vaziyatlarda qo'llashni ta'minlash zarurligini ko'rsatadi. Bu esa sohaviy leksikani o'qitishda real kasbiy diskursni model qilish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi.

Lingvistik tahlil jarayonida sohaviy leksikaning strukturaviy va semantik xususiyatlari o'rganildi. Terminlarning morfologik tuzilishi, kollokatsion imkoniyatlari va diskursiv funksiyalari aniqlanib, ularning kasbiy kontekstdagi o'rni belgilandi. Galskova va Gez tomonidan ilgari surilgan leksik kompetensiya modeli asosida sohaviy leksika birliklarining faol va passiv qatlamlari tasniflandi.

Metodik modellashtirish asosida sohaviy leksikani o'qitishning bosqichli tizimi ishlab chiqildi. Mazkur model motivatsion-bilish, semantik o'zlashtirish, amaliy qo'llash va integrativ bosqichlarni o'z ichiga oladi. Ushbu bosqichlar Nationning leksik o'zlashtirish modeli hamda kompetensiyaga asoslangan ta'lim tamoyillariga mos ravishda shakllantirildi. Mashqlar tizimi reproduktiv va produktiv faoliyatni uyg'unlashtirgan holda ishlab chiqildi.

Tadqiqotning metodologik asosi kommunikativ yondashuv, kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli hamda ESP tamoyillariga tayanadi. Kommunikativ yondashuv til birliklarini funksional

va situativ kontekstda qo'llashni talab etadi; kompetensiyaga asoslangan model esa bilim, ko'nikma va malakalarni real kasbiy vaziyatlarga integratsiyalashni nazarda tutadi. ESP tamoyillari esa o'qitish jarayonini talabning kasbiy ehtiyojlari, mutaxassislik yo'nalishi va kelajakdagi professional faoliyati bilan uzviy bog'lashni taqozo etadi.

Shunday qilib, tadqiqot metodologiyasi nazariy asoslangan, ko'p qirrali va integrativ xarakterga ega bo'lib, sohaviy leksikani o'qitish jarayonini tizimli ravishda tahlil qilish va metodik model ishlab chiqish imkonini berdi.

### Muhokama va natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga ingliz tilida sohaviy leksikani o'rgatish jarayoni bosqichma-bosqich, tizimli va kommunikativ asosda tashkil etilgandagina yuqori samaradorlikka erishish mumkin. Amalga oshirilgan nazariy va metodik tahlillar asosida sohaviy leksikani o'qitishning to'rt bosqichli modeli ishlab chiqildi hamda uning didaktik samaradorligi asoslab berildi.

**1. Motivatsion-bilish bosqichi.** Mazkur bosqichda talabalar kasbiy mavzuga yo'naltirildi, o'rganiladigan termin va atamalarning real kasbiy faoliyatdagi ahamiyati tushuntirildi. Bu jarayonda muammoli savollar, kasbiy vaziyatlarni modellashtirish va autentik materiallardan qisqa parchalar taqdim etish orqali o'quvchilarning ichki motivatsiyasi faollashtirildi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, terminlarning amaliy ahamiyatini anglash talabalar tomonidan ularni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqishni sezilarli darajada oshiradi.

**2. Semantik o'zlashtirish bosqichi.** Ushbu bosqichda yangi terminlar kontekst asosida o'rganildi. Terminlarning lug'aviy ma'nosi bilan bir qatorda ularning kollokatsion imkoniyatlari, sinonimik qatorlari va kasbiy diskursdagi qo'llanishi tahlil qilindi. Semantik xaritalash, klasterlash va kontseptual diagrammalardan foydalanish orqali leksik birliklarning semantik maydoni kengaytirildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, kontekstual yondashuv terminlarni mustahkam va ongli ravishda o'zlashtirishga xizmat qiladi.

**3. Amaliy qo'llash bosqichi.** Bu bosqichda talabalar o'rganilgan leksik birliklarni og'zaki va yozma nutqda qo'llashga jalb qilindi. Rol o'ynash (role-play), mini-prezentatsiyalar, kasbiy dialoglar

tuzish hamda qisqa yozma topshiriqlar orqali produktiv ko'nikmalar rivojlantirildi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, terminlarni faqat yodlash emas, balki ularni real kommunikativ vaziyatlarda qo'llash orqali leksik kompetensiya faol shakllanadi.

**4. Integrativ bosqich.** Mazkur bosqichda sohaviy leksika kasbiy matnlar bilan ishlash, muammoli vaziyatlarni hal etish va loyiha faoliyati orqali integratsiyalashgan holda qo'llanildi. Case-study va loyiha usuli yordamida talabalar mustaqil tahlil, dalillash va xulosalash faoliyatiga jalb qilindi. Natijada leksik birliklar umumiy nutq faoliyatining ajralmas qismiga aylandi. Tadqiqot shuningdek, o'qitish jarayonida autentik kasbiy matnlardan foydalanish talabalar leksik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim omil ekanini ko'rsatdi. Autentik materiallar terminlarning tabiiy kontekstdagi qo'llanilishini ko'rsatib, ularning funksional xususiyatlarini anglashga yordam beradi.

Bundan tashqari, loyiha usuli (project-based learning) va case-study yondashuvlari talabalarni mustaqil izlanishga undaydi hamda terminologik birliklarni real kasbiy vaziyatlarda qo'llash ko'nikmasini shakllantiradi. Klasterlash va semantik xaritalash usullari esa terminlar o'rtasidagi semantik bog'lanishlarni aniqlashga imkon beradi.

Shuningdek, raqamli platformalar va interaktiv vositalardan foydalanish (masalan, onlayn lug'atlar, korpus resurslari, test platformalari) talabalar mustaqilligini oshiradi, tezkor qayta aloqa (feedback)ni ta'minlaydi hamda o'zlashtirish jarayonini differensiallashtirish imkonini beradi. Umuman olganda, ishlab chiqilgan bosqichli metodik model sohaviy leksikani tizimli, funksional va kommunikativ asosda o'zlashtirishni ta'minlaydi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, mazkur yondashuv talabalar leksik kompetensiyasining sifat ko'rsatkichlarini oshiradi hamda ularning kasbiy nutq faoliyatiga tayyorgarligini mustahkamlaydi.

Tadqiqot natijalari ESP (English for Specific Purposes) konsepsiyasining asosiy tamoyillari bilan to'liq uyg'unlikda namoyon bo'ldi. ESP yondashuviga ko'ra, til o'qitish jarayoni talabalarning aniq ehtiyojlari, kasbiy maqsadlari va professional faoliyat sohasi bilan bevosita bog'liq holda tashkil etilishi lozim. Tadqiqot davomida

ishlab chiqilgan bosqichli metodik model aynan ehtiyoj tahlili va kasbiy yo'naltirilgan mazmun asosida shakllantirilgani sababli, u ESPning asosiy nazariy tamoyillariga mos keladi. Bu esa sohaviy leksikani o'qitishda mazmun va metodning o'zaro integratsiyasini ta'minlaydi.

Muhokama jarayonida aniqlanishicha, sohaviy leksika kasbiy kompetensiyaning ajralmas tarkibiy qismi bo'lib, u faqat terminlarni yodlash yoki tarjima qilish bilan cheklanmaydi. Aksincha, terminlarni real kommunikativ vaziyatda maqsadga muvofiq va kontekstga mos ravishda qo'llay olish muhim hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, leksik birliklarni funksional kontekstda o'zlashtirish ularning barqaror va faol qo'llanilishini ta'minlaydi. Bu esa leksik kompetensiyaning produktiv va receptiv jihatlari o'rtasida muvozanatni yuzaga keltiradi.

Kompetensiyaga asoslangan ta'lim modeli ham mazkur natijalarni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu modelga ko'ra, bilim va ko'nikmalar real hayotiy va kasbiy vaziyatlarda qo'llanilgandagina to'laqonli kompetensiyaga aylanadi. Tadqiqot davomida sohaviy leksikani loyiha ishlari, muammoli vaziyatlar (case-study) va kasbiy diskursni modellashtirish orqali o'qitish talabalar tomonidan terminlarning mazmuniy va funksional jihatdan chuqurroq anglanishiga olib keldi. Bu jarayonda talabalar faqat passiv qabul qiluvchi emas, balki faol ishtirokchi sifatida namoyon bo'ldi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar, jumladan, interaktiv metodlar va raqamli resurslardan foydalanish leksik kompetensiyani shakllantirish jarayonini sezilarli darajada takomillashtirishi kuzatildi. Raqamli platformalar orqali tezkor qayta aloqa (feedback) olish, terminlarning autentik kontekstdagi qo'llanilishini ko'rish hamda mustaqil izlanish olib borish imkoniyati talabalar o'zlashtirish samaradorligini oshirdi. Bunday yondashuv talabalarining mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirib, o'rganilgan leksik birliklarning uzoq muddatli xotirada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, sohaviy leksikani o'qitish jarayoni integrativ va bosqichli metodika asosida tashkil etilganda, u nafaqat leksik bilimlarni boyitadi, balki talabalarining kasbiy nutq kompetensiyasini ham shakllantiradi. Bu

esa nofilologik ta'lim yo'nalishlarida ingliz tilini o'qitish mazmunini qayta ko'rib chiqish va uni kasbiy ehtiyojlar bilan uyg'unlashtirish zaruratini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, muhokama jarayonida ayrim metodik muammolar ham aniqlandi. Xususan, sohaviy leksikani tanlash mezonlarini aniqlashtirish, terminologik minimal lug'atni belgilash hamda baholash mezonlarini ishlab chiqish istiqboldagi tadqiqotlar uchun dolzarb yo'nalish bo'lib qolmoqda. Demak, mazkur tadqiqot natijalari sohaviy leksikani o'qitishning nazariy asoslarini boyitish bilan birga, uning amaliy jihatdan takomillashtirilishiga ham xizmat qiladi.

Xulosa. Nofilologik ta'lim yo'nalishi talabalariga ingliz tilida sohaviy leksikani o'rgatish jarayoni an'anaviy leksik o'qitishdan farqli ravishda maxsus metodik yondashuvni talab etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sohaviy leksikani tizimli, bosqichma-bosqich va kommunikativ asosda tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalar kasbiy kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Terminologik birliklarni kontekstual va funksional yondashuv asosida o'zlashtirish ularning ongli va barqaror qo'llanilishiga zamin yaratadi.

Shuningdek, ishlab chiqilgan metodik model leksik kompetensiyaning shakllanishida motivatsion, semantik, amaliy va integrativ bosqichlarning o'zaro bog'liqligini namoyon etdi. Ushbu bosqichlarning izchil tashkil etilishi talabalar tomonidan terminlarni nafaqat tushunish, balki ularni kasbiy diskursda erkin qo'llash imkonini berdi. Bu holat sohaviy leksikaning kasbiy nutq kompetensiyasining ajralmas tarkibiy qismi ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni o'qitish jarayoniga integratsiyalash natijadorlikni oshiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Raqamli resurslar, interaktiv platformalar va autentik materiallardan foydalanish talabalarining mustaqil o'rganish faoliyatini rag'batlantirdi, tezkor qayta aloqa olish imkonini yaratdi hamda o'rganilgan leksik birliklarning uzoq muddatli xotirada mustahkamlanishiga xizmat qildi. Shu bilan birga, loyiha usuli va muammoli vaziyatlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar terminologik bilimlarni real kasbiy kontekst bilan integratsiyalashga yordam

berdi.

Tadqiqot natijalari nofilologik yoʻnalishlarda ingliz tilini oʻqitish mazmunini qayta koʻrib chiqish va uni kasbiy ehtiyojlar bilan uygʻunlashtirish zarurligini koʻrsatadi. Sohaviy leksikani oʻqitishda ehtiyoj tahliliga asoslangan, differensial va kompetensiyaga yoʻnaltirilgan yondashuvni qoʻllash taʼlim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Kelgusida sohaviy leksikani oʻqitishning differensial modeli, minimal terminologik lugʻatni aniqlash mezonlari hamda leksik kompetensiyani baholashning aniq indikatorlarini ishlab chiqish istiqbolli ilmiy yoʻnalish sifatida qaraladi. Shuningdek, raqamli taʼlim muhitida sohaviy leksikani oʻqitish samaradorligini empirik tadqiqotlar asosida chuqurroq oʻrganish mazkur yoʻnalishning metodik asoslarini yanada boyitishi mumkin.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot natijalari nofilologik taʼlim yoʻnalishi talabalariga ingliz tilida sohaviy leksikani oʻrgatishning nazariy va amaliy asoslarini kengaytiradi hamda chet tilini oʻqitish metodikasi sohasidagi ilmiy izlanishlarga munosib hissa qoʻshadi.

## References

1. Jalolov J.J. Chet tillarni oʻqitish metodikasi. Toshkent: Oʻqituvchi. – 2012.
2. Soliyev. U.Y. Talabalarning ingliz tilida oʻqish kompetensiyasini rivojlantirish metodikasi (amaliy matematika yoʻnalishi misolida). disser. ped. f.f.d. Namangan – 2024.
3. Hutchinson T., Waters A. English for Specific Purposes. Cambridge: CUP. – 1987.
4. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge: CUP. – 2014.
5. Dudley-Evans T., St. John M.J. Developments in English for Specific Purposes. Cambridge: CUP. 1998.
6. Nation I.S.P. Learning Vocabulary in Another Language. Cambridge: CUP. – 2001.